

BADMINTON NAZARIYASI VA USLUBIYATI

Xo‘jayeva Guljamol Norxamidovna

Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani 44- maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchisi

Annatotsiya: *Badminton – qadimgi o‘yin bo‘lib, uning kelib chiqishi haqida ko‘plab manbalar mavjud. Men ushbu maqolada badminton o‘yining kelib chiqishi, uning nazariyasi va o‘ziga xos uslubi haqida so‘z yuritaman. Badminton sport turining ham kelib chiqish tarixi va o‘ziga xos xususiyatlari mavjud, bu xususda maqolada ma‘lumot berishga harakat qilamiz.*

Аннотация: *Бадминтон – древняя игра, истоков ее возникновения немало. В этой статье я расскажу о зарождении игры в бадминтон, ее теории и уникальном стиле. Бадминтонный вид спорта также имеет свою историю и особенности, информацию об этом мы постараемся предоставить в статье*

Abstract: *Badminton is an ancient game, and there are many sources of its origins. In this article, i will talk about the origin of the game of badminton, its theory and unique style. Badminton sport also has its own history and characteristics, we will try to provide information about this in the article.*

Kalit so‘zlar: *sport tayyorgarlik jarayoni, mashqlar, mashg‘ulotlar printsiplari, sport mashg‘ulotlari, badminton*

Bugungi kunda dunyo miqiyosida sport turlarining soni va yangidan-yangi ko‘rinishlari mavjud. Ba‘zilarini biz hattoki eshitmaganmiz ham, lekin ma‘lum bir davlatda u sport turi ham mavjud. Ushbu sport turlarining ayrimlari yangi, ayrimlari esa qadimiy va uning o‘ziga xos tarixi mavjud. Bugungi mavzuyimiz hisoblanmish Badminton ham yangi emas, balki bir necha yillik tarixga ega bo‘lgan va o‘z o‘rniga ega bo‘lgan sport turlari sirasiga kiradi. Dastavval, Badminton sport turining kelib chiqish tarixiga bir nazar solsak.

Badminton insoniyat tamaddunining eng qadimiy o‘yinlaridan biridir. Uning kelib chiqishi borasida ko‘plab afsonalar mavjud. Qadimgi Yunoniston, Yaponiya, Hindiston va hatto Afrika xalqlarining rivoyatlarida bundan ikki ming yillar avval kattalar va bolalar volan (badminton koptogi) o‘ynaganliklari qayd etilgan. “Uchuvchi pat” deb nomlangan qadimiy sport o‘yini Xitoyda eramizdan ming yil oldin ham ma‘lum bo‘lgan. U Yaponiyada “oyabane” deb atalgan hamda bir nechta g‘oz pati va quritilgan sakura mevasidan tayyorlangan volanni yog‘och raketkalarda oshirib tashlashga asoslangan. V.Gyugo va I.F.Shillerlarning asarlaridan Yevropada XVI asrda o‘ynalgan volan o‘yini haqida bilib olish mumkin. Fransiyada bunday o‘yin “je-de-pom” (olma bilan o‘vnash) deb nomlangan. G‘rta asr ingliz gravyuralarida bir-birlariga volanni oshirayotgan dehqonlar tasvirlangan. XVIII asrga oid rasmlar Rossiyada ham insonlar o‘sha paytda shunga o‘xshash o‘yinni o‘ynaganlaridan dalolat beradi. Gavriil Derjavin ham patli koptok haqida yozib qoldirgan. 1650-yilda Shvetsiya qirolichasi Kristina Stokgolmdagi Royal Palas (Qirolik saroyi) yaqinida saroy ayonlari va xorijiy mehmonlar bilan “patli koptok” o‘ynash uchun maxsus kort qurdiradi. Mazkur kort Shvetsiya poytaxtida hanuzgacha saqlanib qolgan hamda bugungi kunda cherkov mulki hisoblanadi. XIX asrda Angliyada gersog Beford xonadonida volan o‘yini ayniqsa juda ommalashadi. Gersog badminton Assotsiatsiyasining homiysi bo‘lgan. Bugungi kunda u egalik qilgan Front Xollda ko‘hna raketka va volanlarning ajoyib kolleksiyasi saqlanadi. 1860-yilda Isaak Sprat badminton haqida kitob yozdi va

unda ushbu o‘yinning ilk qoidalarini tavsiflab berdi. Badminton insoniyat tamaddunining eng qadimiy o‘yinlaridan biridir. Uning kelib chiqishi borasida ko‘plab afsonalar mavjud. Qadimgi Yunoniston, Yaponiya, Hindiston va hatto Afrika halqlarining rivoyatlarida bundan ikki ming yillar avval kattalar va bolalar volan (badminton koptogi) o‘ynaganliklari qayd etilgan. “Uchuvchi pat” deb nomlangan qadimiy sport o‘yini Xitoyda eramizdan ming yil oldin ham ma‘lum bo‘lgan. O‘sha davrda Hindistonda xizmat qilgan ingliz zobitlari bu o‘yinni katta qiziqish bilan o‘ynaganlar. 1872-yilda Vatanlariga qaytgach, ular mazkur qiziqarli o‘yinni Glochestershir yaqinidagi Badminton yer-mulkida namoyish etishadi. Aynan shu yil Angliyada mana shu yer-mulk nomidan kelib chiqib “badminton” deb nom berilgan o‘yinning “tug‘ilgan yili” hisoblanadi. 1875-yilda zobitlarning “Folkstaun” nomli badminton klubiga asos solinadi. Assotsiatsiyaning ilk prezidenti polkovnik Dolbi bo‘lib, u “pune” - “roopa” o‘yinlari qoidalari asosida badmintonning yangi qoidalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Ana shu qoidalarning ayrimlari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Asta-sekin Angliyada badminton klublari yuzaga kela boshlaydi. Shuni ta‘kidlash kerakki, o‘sha davrda turli hududlarda o‘lchami har xil bo‘lgan maydonlarda o‘ynashgan. Gvilforddagi kort ayniqsa mashhur bo‘lgan. Aynan mana shu kortning o‘lchamlari (44x20 fut yoki 13,4012x6,096 m) 1887-yilda Badminton klubi tomonidan nashr etilgan o‘yin qoidalariga kiritiladi. 1898-yilda badminton bo‘yicha ilk rasmiy tumir bo‘lib o‘tadi. 1899-yil 4-aprelda Londonda birinchi marta Angliya chempionati o‘tkaziladi. Keyinchalik Angliyada chempionatlar ommalashadi, badminton klublari soni ham ortib, badminton o‘yini Birlashgan Qirollik va butun Yevropada keng ommalashib boradi. Yangi sport o‘yini tez ommalashib, o‘z navbatida, volan ishlab chiqarish ham rivojlanadi. 1898-yilda volan ishlab chiqarish bo‘yicha ilk patentai Enn Jekson xonim oladi. Badminton nafaqat Angliya, balki uning ko‘pdan ko‘p mustamlakalarida ham keng tarqaladi. Shu bois, 1934-yil 5-iyulda Xalqaro badminton federatsiyasi (IBF)ga asos solgan mamlakatlarning aksariyati Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakalari hisoblanadi. U Yaponiyada “oyabane” deb atalgan hamda bir nechta g‘oz pati va quritilgan sakura mevasidan tayyorlangan volanni yog‘och raketkalarda oshirib tashlashga asoslangan. V. Gyugo va I.F. Shillerlarning asarlaridan Yevropada XVI asrda o‘ynalgan volan o‘yini haqida bilib olish mumkin. Fransiyada bunday o‘yin “je-de-pom” (olma bilan o‘vnash) deb nomlangan. O‘rta asr ingliz gravyuralarida bir-birlariga volanni oshirayotgan dehqonlar tasvirlangan. XVIII asrga oid rasmlar Rossiyada ham insonlar o‘sha paytda shunga o‘xshash o‘yinni o‘ynaganlaridan dalolat beradi. Gavriil Derjavin ham patli koptok haqida yozib qoldirgan.

1650-yilda Shvetsiya qirolichasi Kristina Stokgolmdagi Royal Palas (Qirollik saroyi) yaqinida saroy ayonlari va xorijiy mehmonlar bilan “patli koptok” o‘ynash uchun maxsus kort qurdiradi. Mazkur kort Shvetsiya poytaxtida hanuzgacha saqlanib qolgan hamda bugungi kunda cherkov mulki hisoblanadi.

XIX asrda Angliyada gersog Beford xonadonida volan o‘yini ayniqsa juda ommalashadi. Gersog badminton Assotsiatsiyasining homiysi bo‘lgan. Bugungi kunda u egalik qilgan Front Xollda ko‘hna raketka va volanlarning ajoyib kolleksiyasi saqlanadi.

1860-yilda Isaak Sprat badminton haqida kitob yozdi va unda ushbu o‘yinning ilk qoidalarini tavsiflab berdi.

Zamonaviy badmintonning Vatani Hindiston hisoblanadi. U XIX asrda Hindistonda keng ommalashgan va ayrim manbalarga ko‘ra – “pune”, boshqalarida aytilishicha — “roopa” deb atalgan o‘yindan kelib chiqqan. O‘sha davrda Hindistonda xizmat qilgan ingliz zobitlari bu o‘yinni katta

qiziqish bilan o‘ynaganlar. 1872-yilda Vatanlariga qaytgach, ular mazkur qiziqarli o‘yinni Glochestershir yaqinidagi Badminton yer-mulkida namoyish etishadi. Aynan shu yil Angliyada mana shu yer-mulk nomidan kelib chiqib “badminton” deb nom berilgan o‘yinning “tug‘ilgan yili” hisoblanadi. 1875- yilda zobitlarning “Folkstaun” nomli badminton klubiga asos solinadi. Assotsiatsiyaning ilk prezidenti polkovnik Dolbi bo‘lib, u “pune” – “roopa” o‘yinlari qoidalari asosda badmintonning yangi qoidalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Ana shu qoidalarning ayrimlari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Asta-sekin Angliyada badminton klublari yuzaga kela boshlaydi. Shuni ta‘kidlash kerakki, o‘sha davrda turli hududlarda o‘lchami har xil bo‘lgan maydonlarda o‘ynashgan. 1968-yildan boshlab ikki yilda bir marta Yevropa shaxsiy birinchiligi, 1972- yildan esa qit‘aning jamoaviy chempionati o‘tkazilmoqda. Jamoaviy birinchilikda milliy terma jamoalar beshtadan o‘yin kuzatishadi, ya‘ni: erkaklar yakkaligi, ayollar yakkaligi, erkakligi juftligi, ayollar juftligi, aralash juftlik (mikst). Bulardan tashqari, halqaro federatsiya bir qator rasmiy shaxsiy tumirlarni ham o‘tkazib keladi. Ular orasida yaqin-yaqinlargacha Angliya ochiq chempionati eng mashhurlaridan biri bo‘lgan va u norasmiy jahon chempionati hisoblangan. Angliya ochiq chempionatiga 1899-yilda asos solingan. Ilk rasmiy jahon chempionati 1977-yil Shvetsiyaning Malme shahrida bo‘lib o‘tgan.

Demak, ushbu ma‘lumotlardan ko‘rinyaptiki, Badminton o‘z-o‘zidan shu holiga kelib qolmagan, u ushbu ko‘rinishga kelguncha bir qancha yillarni, o‘zgarishlarni boshidan kechirgan. Yuqorida uning qanday sport turi ekanligi va kelib chiqishiga nazar solsak, endi uning nazariyasi va uslubiyati haqida so‘z ochamiz.

Mashg‘ulot jarayonining asosligi uning ilmiy asosda shakllanganligini va samaradorligini belgilab beradi. Ko‘p miqdordagi qonun va tamoyillardan mashg‘ulotning birinchi o‘rindaligi va samaradorligi hisoblanadigan ajratib ko‘rsatish lozim. Bularga quyidagi beshta tamoyilni kiritish lozim: har tomonlilik, maxsuslilik, bosqichma-bosqichlilik, takroriylik, individuallilik. Texnik tayyorgarlik yangi texnik elementlarni o‘zlashtirish va eskilarini mukammallashtirish, ularni barqaror darajaga olib chiqish va qo‘llashdagi xilma-xillikni shakllantirish; nazariy bilimlarini o‘zlashtirish; individual mahoratni kashf etish; sport nomzodi va sport ustasi normativlarini bajarish; sportni mukammallashtirish bosqichi sportchining individual mahoratlarini qo‘llagan holda individual o‘yin stilini ishlab chiqish bilan xarakterlanadi. Texnik tayyorgarlik kuchli va kuchsiz tomonlarni hisobga olgan holda olib boriladi. Umumiy mashg‘ulot hajmidagi maxsus mashqlarning hajmi yanada o‘sib 60-70%ni tashkil etadi. Jami tayyorgarlik mazkur musobaqa shartlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Mashg‘ulot yuklamasining intensivligini oshirish sportchining funksional va jismoniy sifatlarini mukammallashtirishdagi asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlashimiz lozimki, Badminton sport turi bugungi kunda O‘zbekistonda ham o‘zining o‘rnini va mavqeini kundan kunga oshirib bormoqda, O‘zbekiston respublikasining bayrog‘i aynan mana shu sport turi uchun o‘tkazilgan jahon chempionatlarida baralla hilpirashi uchun bizga kuchli ustozlar va kadrlar zarur. Buning uchun esa avvalo yoshlarimiz ushbu sport turi haqida bilishlari va unga qiziqishlari zarur, bu esa biz o‘qituvchilarning qo‘lida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- Salomov R.S. Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: O‘zDJTI, 2005.
- Pulatov A.A., Savatyugin O.M., Isroilov Sh.Sh. Badminton nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, 2017.
- <https://fayllar.org/I-mavzu-badminton-oyinining-kelib-chiqishi-va-rivojlanish-tari>.